

YANGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT QOMUSI

Norboyev Sardor Qavmuddinovich

Maqola muallifi – BuxDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Tursunova Madinabonu Akmalevna

BuxDPI 1-bosqich talabasi

Tel: +998944624842

Elektron pochta: tursunovamadin5555@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10427600>

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan, O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasi haqidagi fikrlar, Yangi Konstitutsiyaning xalqimiz hayotida qanchalik o'z o'rnnini topganligi haqida aytilgan. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda biz ham eng ilg'or davlatlar qatorida bo'lishimiz uchun Konstitutsiyamizning yangilangani ayni muddao bo'ldi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, referendum, monopoliya, strategiya, korrupsiya.

THE NEW CONSTITUTION - COMMUNICATION OF DEVELOPMENT

Abstract. This article mainly talks about the opinions about the new Constitution of the Republic of Uzbekistan, how much the new Constitution has found its place in the life of our people. In order for us to be among the most advanced countries in the time of rapid development, it was time to renew our Constitution.

Keywords: Constitution, referendum, monopoly, strategy, corruption.

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ – КОММУНИКАЦИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье в основном говорится о мнениях о Новой Конституции Республики Узбекистан, о том, насколько Новая Конституция нашла свое место в жизни нашего народа. Для того, чтобы мы могли войти в число самых передовых стран во времена бурного развития, пришло время обновить нашу Конституцию.

Ключевые слова: Конституция, референдум, монополия, стратегия, коррупция

Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonunidir. U jamiyat uchun ishlashi, uning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiyaning mazmuni – mamlakatning davlat, ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha asoslarini belgilashdan iborat. Boshqacha aytganda, u huquq tizimining asosi va poydevori bo'lib, boshqa barcha qonunlar uning asosida quriladi. Lekin, shu bilan birga, Konstitutsiya qat'iy, o'zgarmas hujjat emas. Agar Konstitutsiyani o'zgartirish zarurati paydo bo'layotgan bo'lsa, demak, bu jamiyatning evolyutsion rivojlanishiga asoslangan holda, O'zbekistonda yaqin kelajakda bo'lган maqsadlarimizni belgilab olish, ochiq va ishonchli davlat qurish uchun hayotiy zaruratdan dalolat beradi.

“2023-yilning 30-aprel sanasida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqeal bo'lib o'tdi. “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni umumxalq referendumida ovozga qo'yildi. Referendum natijasiga ko'ra, 2023-yilning 1-may sanasidan boshlab Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi. Unga binoan, Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat. Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

“Konstitutsiyada O’zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani belgilab qo’yildi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida belgilandi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko’zlab faoliyat ko’rsatishiga asos bo’ladi.

Binobarin, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo’lishi shart va zarur. Bunga ko’ra, inson va davlat o’rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Konstitutsiyada kambag’allikni qisqartirish, bandlikni ta’minalash, ishsizlikdan himoya qilish bo’yicha normalar belgilandi.

Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo’lish huquqi belgilandi.

Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarining o’z boshpanasiga ega bo’lishini ta’minalab, kishilarining hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, hech kimning sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko’rgan zararlarning o’rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minalishi kafolatlandi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha kompleks choralar belgilandi.

Ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, o’qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo’ldi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassalarida davlat granti hisobidan o’qish huquqi qat’iy belgilab qo’yildi.

Konstitutsiyada davlatning o’qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o’sishi to’g’risida g’amxo’rlik qilish majburiyati qayd etildi.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, O’zbekistonda o’lim jazosi taqiqlandi. O’lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog’liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart.

Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo’l qo’ymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutini qo’llanish ko’lami yanada kengaydi.

Shaxsni ushslash chog’ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o’ziga qarshi ko’rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukul saqlash huquqi berildi.

Har kimning yozishmalari, telefon orqali so’zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv o’ykazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo’l qo’yilishi belgilab qo’yildi.

Yoshlar huquqlari himoyalanishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirish kafolatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalariga oid belgilangan muhim qoidalar:

- davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydi; davlat ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi;

- ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi;

- ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir”¹.

Yangilangan Konstitutsiyamizda har bir modda barchaga tushunarli, aniq va lo'nda bayon etilgani va sinchiklab ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'zgarish va qo'shimchalar O'zbekistonni yanada barqaror rivojlantirish, turli tahdidlarga qarshi tura oladigan salohiyatini mustahkamlashga qaratilgandir.

Zamonaviy O'zbekiston tarixida ilk marotaba xalqning o'zi konstitutsiyaviy islohotlarda faol ishtirok etgani katta ahamiyatga ega. Bu esa ochiq va demokratik mamlakat taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. Qonunchiligidan keyin hech qanday qo'shimcha hujjat qabul qilish bo'yicha referendum o'tkazilgandan keyin hech qanday qo'shimcha hujjat qabul qilish, parlamentda muhokama qilinishi va prezident tomonidan imzolanishi shart emas, chunki umumxalq ovozi yakuniy qarorni belgilab berdi.

Mamlakatimizda yangilangan Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilingan birinchi huquqiy hujjat bo'ldi.

Afsuski, korrupsiya, monopoliya, mas'uliyatsizlik, layoqatsizlik, mahalladoshlik, beparvolik kabi illatlar xalqimiz farovonligiga, butun davlatning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini bugun ochiq tan olamiz.

Konstitutsiyamizni esa bugun o'zgartirmasak, uni zamon talablariga javob beradigan me'yordarga moslashtirmasak, jamiyatimizni zanglagan “zangi”dan qutula olmaymiz, bundan tashqari, raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg'or davlat bo'lishimiz uchun ko'p yillar kerak bo'ladi.

Belgilangan maqsad – raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg'or davlatga aylanish. Bu afsona emas, bu haqiqatga intilishimiz kerak. Biz qurayotgan jamiyatda inson omili muhim o'rinn tutadi, bu esa inson manfaatlarining ustuvorligiga asoslanadi.

“Yangilangan Konstitutsiya “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslanadi, chunki unda barcha toifalar – yoshlar, ayollar, nogironlar, o'qituvchilar va hatto jinoyatchilar (adashgan fuqarolar) ning huquq va manfaatlari o'z ifodasini topgani bilan amaliy ahamiyatga ega”².

“Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilardan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa,

¹ <https://meningkonstitutsiyam.uz/>

² <https://daryo.uz/>

huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi”³.

“Insoniyat o'z taraqqiyotining uchinchi ming yilligiga qadam qo'yan hozirgi davrda dunyo jamoatchiligi muhim bir haqiqatni anglab yetdi, ya'ni davlat demokratik prinsiplarga tayanishi hamda shu asnoda insonning erkinligini himoyalovchi va uning farovon turmush kechirishini ta'minlovchi vositaga aylanishi lozim. Dunyoviy konstitutsionalizm yutuqlari bilan yo'g'rilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida davlatimizda oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri sifatida “respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishini ta'minlash” masalasi ilgari surilganligi chuqr ramziy ma'no va mazmun kasb etadi”⁴.

“Konstitutsiyaviy huquq ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat. Bu ijtimoiy munosabatlar jamiyat, inson, davlat o'rtasida vujudga keladi. Konstitutsiyaviy huquq bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlar tizimida asosiy, rahbariy, bosh munosabatlardan iborat bo'ladi va boshqa ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun asos, tayanch vazifasini o'taydi. Masalan, Konstitutsiyaviy huquq mulkiy munosabatlarning asoslarini belgilashi bilan mulkiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi”⁵.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining ustuvor yo'naliшlarini belgilab berdi.

Bu esa inson huquq va erkinliklariga oid masalalarda huquqni qo'llash amaliyotiga yangicha yondashuvlar joriy qilishni dolzarb zaruratga aylantirmoqda.

Zero, barchamizning vazifamiz inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir.

REFERENCES

1. <https://meningkonstitutsiyam.uz/>
2. <https://daryo.uz/>
3. <https://iiv.uz/>
4. Odilqoriyev X.T “Konstitutsiyaviy huquq” Darslik. - Toshkent 2014
5. Husanov.O “Konstitutsiyaviy huquq “ Darslik. - Toshkent 2013

³ <https://iiv.uz/>